



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№3


ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

3-jild
3-son
March, 2026

February, 2026
Volume 3
Number 3

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

Каршинский государственный технический университет

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор, академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамишнур Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Moliya, kredit va investitsiya
Finance, credit and investment
Финансы, кредит и инвестиции



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSIYA JARAYONLARINING HUDUDIIY IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI

Sarsenbayev Salauat Muxammedovich

ВЛИЯНИЕ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ НА РЕГИОНАЛЬНОЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН

Сарсенбаева Салауата Мухамедовича

INFLUENCE OF INVESTMENT PROCESSES ON REGIONAL ECONOMIC DEVELOPMENT IN THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN

Sarsenbayev Salauat Mukhammedovich

Received: March 2, 2026 Revised: March 5, 2026 Accepted: March 9, 2026 Published: April 1, 2026

Annotatsiya: Mazkur maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasida investitsiya jarayonlarining hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta'siri ilmiy jihatdan kompleks tahlil qilingan. Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi, ularning tarkibi, tarmoqlar kesimidagi ulushi hamda iqtisodiy o'sishga ta'siri statistik va iqtisodiy hisob-kitoblar asosida baholandi. Tadqiqot natijasida investitsiya faolligining hududiy yalpi mahsulot o'sishiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqligi aniqlanib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: investitsiya, hududiy iqtisodiyot, iqtisodiy o'sish, asosiy kapital, diversifikatsiya, sanoat, infratuzilma.

Аннотация: В статье проведен комплексный анализ влияния инвестиционных процессов на региональное экономическое развитие Республики Каракалпакстан. Оценены объемы инвестиций в основной капитал, их структура и влияние на экономический рост на основе статистических и расчетных методов. Разработаны научно-практические рекомендации по активизации инвестиционной деятельности.

Ключевые слова: инвестиции, региональная экономика, экономический рост, основной капитал, диверсификация, промышленность, инфраструктура.

Abstract: The article provides a comprehensive analysis of the impact of investment processes on regional economic development in the Republic of Karakalpakstan. The volume and structure of fixed capital investments and their influence on economic growth were assessed using statistical and analytical methods. Scientific recommendations aimed at enhancing regional investment activity are proposed.

Keywords: investment, regional economy, economic growth, fixed capital, diversification, industry, infrastructure.

■ KIRISH

Hududiy iqtisodiy rivojlanish sharoitida investitsiyalar iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy iqtisodiy nazariyada investitsiyalar ishlab chiqarish omillarini takomillashtirish, kapital qo'yilmalar hajmini oshirish va tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish orqali yalpi hududiy mahsulot o'sishini rag'batlantiruvchi strategik resurs sifatida baholanadi [1]. Ayniqsa, endogen o'sish nazariyasiga ko'ra, investitsiyalar innovatsiyalarni joriy etish, inson kapitali va texnologik taraqqiyotni

qo'llab-quvvatlash orqali uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

Hududiy iqtisodiyot tizimida investitsiya jarayonlari ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish, transport va logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish, qo'shimcha ish o'rinlari yaratish hamda eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi [2].



Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyotida investitsiyalarning ahamiyati yanada dolzarb hisoblanadi. Hududning tabiiy-iqlim sharoiti, Orolbo'yi ekologik inqirozi oqibatlarini, sanoat tarmoqlarining nisbatan past diversifikatsiya darajasi hamda infratuzilmaning etarli darajada rivojlanmaganligi investitsiya faolligini tizimli ravishda kuchaytirishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, investitsiyalarning hududiy iqtisodiy o'sishga ta'sirini ilmiy asosda tahlil qilish va baholash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

So'nggi yillarda mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, jumladan investitsiya muhitini liberallashtirish, xususiy mulk himoyasini kuchaytirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etishga qaratilgan chora-tadbirlar hududlar iqtisodiyotida yangi imkoniyatlar yaratmoqda [3]. Biroq investitsiya resurslarining tarmoqlar bo'yicha taqsimoti, ularning samaradorlik darajasi va hududiy iqtisodiy o'sish bilan o'zaro bog'liqligini chuqur tahlil qilish zarurati saqlanib qolmoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — Qoraqalpog'iston Respublikasida investitsiya jarayonlarining hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini iqtisodiy-statistik tahlil asosida baholash va uni jadallashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot obyekti sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasining hududiy iqtisodiyoti tanlangan bo'lib, predmeti — investitsiya jarayonlari va ularning iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga ta'siri hisoblanadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi investitsiya hajmi, tarkibi va yalpi hududiy mahsulot dinamikasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kompleks baholash orqali hududiy iqtisodiy rivojlanishning investitsion mexanizmlarini aniqlashdan iborat.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Hududiy iqtisodiy rivojlanishda investitsiyalarning o'zni va ahamiyati iqtisodiy nazariyada keng o'rganilgan masalalardan biridir. Hududiy iqtisodiyot va investitsiya jarayonlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalalari mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan turli nazariy yondashuvlar asosida tadqiq etilgan.

Hududiy iqtisodiyot nazariyasining shakllanishi va rivojlanishida investitsiyalarning hududiy o'sish omili sifatidagi roli alohida ta'kidlanadi. Xususan, Pardaev M.Q. o'zining "Hududiy iqtisodiyot" nomli asarida hududiy rivojlanishning asosiy omillari qatorida investitsiya resurslarining hajmi va samaradorligini muhim determinant sifatida ko'rsatadi [1]. Muallifning fikricha, investitsiyalar ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangi ish o'rinlari yaratish hamda hududiy iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishda asosiy vosita hisoblanadi. Ushbu yondashuv investitsiyalarni hududiy iqtisodiy siyosatning strategik instrumenti sifatida baholash imkonini beradi.

Hududiy iqtisodiyotning nazariy-metodologik asoslari rus iqtisodiy maktabi vakillari tomonidan ham keng tadqiq qilingan. Jumladan, Batrakova L.G. hududiy rivojlanishning tarkibiy omillari, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy differensiallashuv va investitsiya oqimlarining hududiy taqsimlanish mexanizmlarini chuqur tahlil

qilgan [2]. Muallif investitsiyalarning samaradorligi ularning tarmoqlar va hududlar kesimidagi optimal taqsimotiga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Mazkur ilmiy qarashlar Qoraqalpog'iston Respublikasida investitsiyalar tarkibini tahlil qilishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakat miqyosida investitsiya siyosatining institutsional asoslari O'zbekiston Respublikasining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasida belgilab berilgan [3]. Ushbu normativ-huquqiy hujjatda hududiy investitsiya faolligini oshirish, sanoatni diversifikatsiya qilish, innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash hamda xususiy sektor ulushini kengaytirish ustuvor vazifalar sifatida qayd etilgan. Strategiyada investitsiyalarni hududiy rivojlanishning asosiy drayveri sifatida belgilash ilmiy tadqiqotning dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

Hududiy investitsiya jarayonlarini empirik baholashda rasmiy statistika ma'lumotlari muhim manba hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi tomonidan e'lon qilinayotgan hududiy iqtisodiy ko'rsatkichlar investitsiyalar va yalpi hududiy mahsulot o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash imkonini beradi [4]. Statistik ma'lumotlar asosida investitsiya dinamikasi, o'sish sur'atlari va ularning iqtisodiy natijalarga ta'siri kompleks tahlil qilinishi mumkin.

Shunday qilib, mavjud ilmiy adabiyotlar va normativ-huquqiy manbalar investitsiyalarning hududiy iqtisodiy rivojlanishdagi hal qiluvchi o'rnini tasdiqlaydi. Biroq Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida investitsiya jarayonlarining iqtisodiy o'sish bilan o'zaro bog'liqligini aniq statistik hisob-kitoblar asosida kompleks baholash etarli darajada tadqiq etilmagan. Mazkur maqola aynan shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

■ TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda hududiy iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini kompleks baholash maqsadida bir qator ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Xususan, quyidagi metodlar qo'llanildi:

- **statistik tahlil** – investitsiyalar hajmi, ularning tarkibiy tuzilishi va hududiy iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash maqsadida qo'llanildi;

- **dinamik qatorlar tahlili** – investitsiyalar va yalpi hududiy mahsulot ko'rsatkichlarining vaqt bo'yicha o'zgarish tendensiyalarini aniqlash hamda o'sish sur'atlarini hisoblash uchun ishlatildi;

- **solishtirma tahlil** – Qoraqalpog'iston Respublikasi ko'rsatkichlarini respublikaning boshqa hududlari bilan taqqoslash orqali hududiy tafovutlarni baholash imkonini berdi;

- **tizimli yondashuv** – investitsiya jarayonlarini hududiy iqtisodiy tizimning ajralmas elementi sifatida kompleks ravishda o'rganishga xizmat qildi.

Tadqiqotning empirik bazasini O'zbekiston Respublikasi rasmiy statistika ma'lumotlari, hududiy iqtisodiy rivojlanish bo'yicha yillik hisobotlar hamda tahliliy materiallar tashkil etdi [3], [4]. Mazkur ma'lumotlar asosida iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligi tahlil qilindi va ilmiy xulosalar shakllantirildi.

■ TAHLIL VA NATIJALAR



So'nggi yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasida asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi izchil o'sish tendentsiyasini namoyon etmoqda. Investitsiya faolligining ortishi hudud iqtisodiyotini tarkibiy jihatdan modernizatsiya

qilish, sanoat ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish hamda infratuzilmani rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan yirik investitsiya loyihalari hududiy iqtisodiy o'sishning muhim omiliga aylanmoqda.

1-jadval

Qoraqalpog'iston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (mlrd so'm)

Yil	Investitsiyalar hajmi	O'sish sur'ati (%)
2020	8 500	—
2021	10 200	120,0
2022	12 800	125,5

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2020–2023-yillarda investitsiyalar hajmi 8 500 mlrd so'mdan 15 600 mlrd so'mgacha oshgan. Mazkur davrda umumiy o'sish 7 100 mlrd so'mni tashkil etib, qariyb 1,83 baravar o'sish kuzatilgan. 2022-yilda investitsiyalar eng yuqori o'sish sur'atini (125,5 %) qayd etgan bo'lib, bu hududda investitsiya faolligining sezilarli darajada jadallashganidan dalolat beradi.

O'rtacha yillik o'sish sur'ati:

$$T = \sqrt[3]{\frac{15600}{8500}} \times 100 = 122,3\%$$

Mazkur natija investitsiya hajmining har yili o'rtacha 22,3 foizga oshib borganini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich hududiy iqtisodiyot uchun ijobiy dinamikani ifodalaydi hamda investitsiya siyosatining nisbatan samarali amalga oshirilayotganini tasdiqlaydi.

Investitsiyalarning ko'payishi, avvalo, sanoat ishlab chiqarish hajmining kengayishiga olib kelmoqda. Qurilish materiallari ishlab chiqarish, oziq-ovqat sanoati hamda qayta ishlash tarmoqlarida yangi ishlab chiqarish

quvvatlari ishga tushirilmoqda. Bu esa nafaqat yalpi mahsulot hajmini oshirish, balki qo'shimcha ish o'rinlari yaratish va hududning eksport salohiyatini kengaytirishga ham xizmat qilmoqda.

Investitsiyalar agrar sohada sug'orish tizimini modernizatsiya qilish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikalarini xarid qilish imkonini bermoqda. Natijada er va suv resurslaridan foydalanish samaradorligi oshib, qishloq xo'jaligi mahsuldorligi ko'tarilmoqda. Bu jarayon hududiy yalpi mahsulot tarkibida agrar sektor ulushining barqaror o'sishiga zamin yaratmoqda.

Hududiy iqtisodiy rivojlanishning muhim integrallashgan ko'rsatkichi sifatida yalpi hududiy mahsulot (HYM) dinamikasi ham tahlil qilindi.

2-jadvaldan ko'rinadiki, 2020–2023-yillarda HYM hajmi 32 000 mlrd so'mdan 48 200 mlrd so'mgacha oshgan. Umumiy o'sish 16 200 mlrd so'mni tashkil etib, 1,5 baravarga yaqin ko'paygan. Yillik o'sish sur'atlari 14–15 foiz atrofida barqaror saqlanib kelmoqda.

2-jadval

Hududiy yalpi mahsulot dinamikasi (mlrd so'm)

Yil	HYM	O'sish (%)
2020	32 000	—
2021	36 500	114,0
2022	41 800	114,5
2023	48 200	115,3

Investitsiyalar va HYM o'sishi o'rtasidagi nisbat iqtisodiy o'sishning investitsiyalarga qanchalik bog'liqligini ko'rsatadi. Hisob-kitoblarga ko'ra, investitsiya o'sishi va HYM o'sishi o'rtasida to'g'ri proporsional bog'liqlik mavjud. Bu investitsiya jarayonlari hududiy iqtisodiy faollikni rag'batlantirayotganini anglatadi.

Investitsiya samaradorligi ko'rsatkichi:

$$IS = \frac{HYM \text{ o'sishi}}{Investitsiya \text{ o'sishi}}$$

2023-yil uchun:

$$IS = \frac{115,3}{121,9} = 0,95$$

Mazkur ko'rsatkich 1 ga yaqin qiymatni tashkil etmoqda. Bu investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga sezilarli ta'sir ko'rsatayotganini bildiradi. Biroq, ko'rsatkichning 1 dan pastligi investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligini yanada oshirish zarurligini ham ko'rsatadi. Ya'ni, har bir foiz investitsiya o'sishi to'liq darajada yalpi hududiy mahsulot o'sishiga transformatsiya qilinmayapti.

Shu bois investitsiyalarni yuqori qo'shimcha qiymat yaratuvchi tarmoqlarga yo'naltirish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish hamda xususiy sektor ishtirokini kuchaytirish investitsiya samaradorligini oshirishning muhim yo'nalishlari hisoblanadi.



Umuman olganda, tahlillar shuni ko'rsatadiki, Qoraqalpog'iston Respublikasida investitsiya faolligining ortishi hududiy iqtisodiy o'sishning muhim drayveriga aylanmoqda. Biroq uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun investitsiyalarning tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish va ularning samaradorligini oshirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Olib borilgan tahlillar natijalari investitsiyalar hajmi bilan hududiy iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari o'rtasida sezilarli darajadagi ijobiy bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi. Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarning izchil o'sishi yalpi hududiy mahsulot hajmining barqaror ortib borishi bilan parallel ravishda kechmoqda. Bu holat investitsiya jarayonlari hududiy iqtisodiy rivojlanishning muhim determinanti ekanligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, investitsiyalar tarkibiy tuzilmasi tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning salmoqli qismi davlat mablag'lari va markazlashtirilgan resurslar hisobidan moliyalashtirilmoqda. Xususi sektor hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulushining nisbatan pastligi hudud iqtisodiyotida bozor mexanizmlarining etarli darajada shakllanmaganligini anglatadi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy o'sishning barqarorligi ko'p jihatdan xususi investitsiyalar ulushi va tadbirkorlik faolligiga bog'liq.

Davlat investitsiyalarining ustunligi qisqa muddatda infratuzilma va ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish imkonini bersa-da, uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash uchun xususi sektorni rag'batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Xususan, soliq imtiyozlari, investitsiya kafolatlari, er va mulk munosabatlarini liberallashtirish hamda biznes yuritish sharoitlarini soddalashtirish xususi kapital oqimini oshirishga xizmat qiladi.

Hududiy iqtisodiy rivojlanishning muhim yo'nalishlaridan biri — iqtisodiyot tarkibiy diversifikatsiyasini chuqurlashtirishdir. Qoraqalpog'iston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishining asosiy qismi bir necha tarmoqlarga to'g'ri keladi. Diversifikatsiya darajasining pastligi iqtisodiy xavflarni oshiradi va tashqi omillarga bog'liqlikni kuchaytiradi. Shu bois investitsiyalarni yuqori qo'shimcha qiymat yaratuvchi tarmoqlarga, xususan, qayta ishlash sanoati, kimyo, farmatsevtika, oziq-ovqat sanoati hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Logistika infratuzilmasini rivojlantirish ham hududiy iqtisodiy samaradorlikni oshirishning asosiy omillaridan biridir. Transport yo'llari, omborxona tizimi va eksport logistikasining takomillashuvi investitsiyalarning multiplikativ ta'sirini kuchaytiradi. Infratuzilmaning rivojlanishi ishlab chiqarish tannarxini kamaytiradi va hududning investitsion jozibadorligini oshiradi.

Shuningdek, investitsiyalarning innovatsion loyihalarga yo'naltirilishi iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi [3]. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish mehnat unumdorligini oshiradi, resurslardan foydalanish samaradorligini yaxshilaydi hamda mahsulot raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Endogen iqtisodiy o'sish nazariyasiga ko'ra,

innovatsion investitsiyalar uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy manbai hisoblanadi.

Natijalarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, Qoraqalpog'iston Respublikasida investitsiya jarayonlari hududiy iqtisodiy rivojlanishga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Biroq investitsiyalarning tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish, xususi sektor ulushini oshirish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va infratuzilmani modernizatsiya qilish orqali investitsiya samaradorligini yanada kuchaytirish zarur.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari Qoraqalpog'iston Respublikasida investitsiya jarayonlari hududiy iqtisodiy rivojlanishning muhim va hal qiluvchi omili ekanligini tasdiqladi. Tahlillar asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmining o'sishi yalpi hududiy mahsulot dinamikasiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatdi. Investitsiyalar iqtisodiy o'sishning intensiv omiliga aylangan bo'lib, ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi, sanoat tarmoqlarining modernizatsiyasi va infratuzilmaning rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, investitsiya samaradorligi ko'rsatkichlari mavjud salohiyatdan to'liq foydalanilmayotganini ham ko'rsatadi. Investitsiyalar tarkibida davlat ulushining yuqoriligi, xususi va xorijiy kapitalning etarli darajada jalb etilmayotgani hududiy iqtisodiyotning uzoq muddatli barqaror rivojlanishida muayyan cheklavlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Xususi investitsiyalar ulushini oshirish.

Hududda investitsiya muhitini yaxshilash, tadbirkorlik subyektlariga soliq va moliyaviy imtiyozlar berish, davlat-xususi sheriklik mexanizmlarini kengaytirish zarur. Bu investitsiya manbalarini diversifikatsiya qilish hamda iqtisodiyotning bozor mexanizmlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

2. Sanoat klasterlarini rivojlantirish.

Hududiy ixtisoslashuvni hisobga olgan holda sanoat klasterlarini shakllantirish ishlab chiqarish kooperatsiyasini kuchaytiradi, qo'shimcha qiymat zanjirini kengaytiradi hamda eksport salohiyatini oshiradi. Klasterlashuv investitsiyalarning multiplikativ samaradorligini ta'minlaydi.

3. Logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish.

Transport yo'llari, temir yo'l tarmoqlari, logistika markazlari va omborxona tizimini takomillashtirish investitsion jozibadorlikni oshiradi hamda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi. Bu hududning milliy va xalqaro bozorlar bilan integratsiyasini kuchaytiradi.

4. Innovatsion loyihalarni rag'batlantirish.

Yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni qo'llab-quvvatlash, raqamli iqtisodiyot elementlarini joriy etish va ilmiy-tadqiqot faoliyatini investitsiyaviy qo'llab-quvvatlash iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim omilidir. Innovatsion investitsiyalar uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishning asosini tashkil etadi.

5. Ekologik investitsiyalarni kengaytirish.



Qoraqalpog‘iston Respublikasining ekologik holatini inobatga olgan holda “yashil iqtisodiyot” tamoyillariga asoslangan investitsiya loyihalarini kengaytirish zarur. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari, suvni tejovchi texnologiyalar va ekologik xavfsizlikka yo‘naltirilgan loyihalar hududning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, investitsiya jarayonlarini strategik boshqarish, ularning tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish va samaradorligini oshirish orqali Qoraqalpog‘iston Respublikasida barqaror hududiy iqtisodiy o‘rishni ta‘minlash mumkin. Mazkur takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi hudud iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish hamda aholi farovonligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Sarsenbayev Salauat Muxammedovich Berdaq nomidagi Qoraqalpog‘ davlat universiteti talabasi / Сарсенбаева Салауата Мухамедовича студентка

Каракалпакского государственного университета имени Бердаха / Sarsenbayev Salauat Mukhammedovich student of the Berdakh Karakalpak State University

E-mail: salauat139@gmail.com

ORCID: 0000-0003-1740-1559

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1) Pardaev M.Q. Hududiy iqtisodiyot: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. – 240 b.

2) Батракова Л.Г. Региональная экономика: учебник. – Москва: ИНФРА-М, 2018. – 320 с.

3) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. O‘zbekiston Respublikasini 2022–2026-yillarda rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida: PF–60-son Farmon, 28.01.2022-y. – Toshkent, 2022.

4) O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Qoraqalpog‘iston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari (2020–2023 yy.). – Toshkent, 2024. – 180 b.



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz